

O'ZBEKISTONNING EKOLOGIYA SOHASIDAGI XALQARO HAMKORLIGI

Gayipov Saidbek Xayrulla o'g'li

Abu Rayhon Beruniy nomidagi

Urganch davlat universiteti

Magistratura bo'limi Tarix mutaxassisligi 2-kurs magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18253090>

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining ekologiya sohasida olib borayotgan xalqaro hamkorlik yo'nalishlari yoritilgan. Xususan, Orol dengizining qurishi bilan bog'liq ekologik muammolar, BMT, Yevropa Ittifoqi, Germaniya, Janubiy Koreya kabi davlat va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan loyihalar, "Yashil makon" tashabbusi va O'zbekistonning global ekologik tashabbuslari tahlil qilingan. 2021-yilda O'zbekiston tashabbusi bilan Orolbo'yi hududi BMT rezolyutsiyasi asosida "ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi" deb e'lon qilingani alohida ilmiy asosda ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: ekologik hamkorlik, Orolbo'yi, xalqaro loyihalar, BMT, yashil iqtisodiyot, ekologik xavfsizlik.

МЕЖДУНАРОДНОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО УЗБЕКИСТАНА В ОБЛАСТИ ЭКОЛОГИИ

Аннотация. В данной статье рассматриваются направления международного сотрудничества Республики Узбекистан в области экологии. Особое внимание уделено экологическим проблемам, связанным с высыханием Аральского моря, совместным проектам с такими структурами, как ООН, Европейский союз, Германия и Южная Корея, а также инициативе «Зелёное пространство» и глобальным экологическим действиям Узбекистана. Отдельно проанализировано принятие в 2021 году резолюции ООН о признании Приаралья зоной экологических инноваций и технологий.

Ключевые слова: экологическое сотрудничество, Приаралье, международные проекты, ООН, зелёная экономика, экологическая безопасность.

UZBEKISTAN'S INTERNATIONAL COOPERATION IN THE FIELD OF ECOLOGY

Abstract. This article explores the directions of the Republic of Uzbekistan's international cooperation in the field of ecology. It highlights environmental challenges associated with the drying of the Aral Sea, joint projects with organizations such as the UN, the European Union, Germany, and South Korea, as well as the "Green Space" initiative and Uzbekistan's global environmental actions. Particular attention is given to the 2021 UN resolution that declared the Aral Sea region as a "zone of environmental innovations and technologies," analyzing its scientific and practical significance.

Keywords: environmental cooperation, Aral Sea region, international projects, UN, green economy, environmental safety.

KIRISH.

So'nggi yillarda ekologik muammolar global miqyosda eng dolzarb masalalardan biriga aylangan. O'zbekiston Respublikasi ham ekologik barqarorlik va atrof-muhit muhofazasini ta'minlashda faol xalqaro hamkorlik olib bormoqda.

Ayniqsa, **Orol dengizining qurishi bilan bog‘liq ekologik inqiroz** nafaqat milliy, balki mintaqaviy va global xavfsizlikka tahdid solmoqda. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yildan buyon o‘z chiqishlarida BMT va boshqa xalqaro forumlarda ushbu muammoni xalqaro miqyosda hal qilishga da’vat qilib kelmoqda. 2021-yil 18-may kuni BMT Bosh Assambleyasida qabul qilingan **“Orolbo‘yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi deb e’tirof etish to‘g‘risidagi rezolyutsiya”** (A/RES/75/278) O‘zbekiston tashabbusining muhim natijasi bo‘ldi. Ushbu hujjat asosida Orolbo‘yi muammosi global ekologik kun tartibiga chiqarildi. Bundan tashqari, O‘zbekiston **Yevropa Ittifoqi, BMTning atrof-muhit bo‘yicha dasturi (UNEP), Germaniya xalqaro hamkorlik jamg‘armasi (GIZ), KOICA (Janubiy Koreya)** kabi tashkilotlar bilan atrof-muhitni muhofaza qilish, cho‘llanishga qarshi kurashish, bioxilma-xillikni saqlash va yashil energetikani rivojlantirish borasida yirik xalqaro loyihalarni amalga oshirmoqda. 2021-yildan boshlab mamlakatda **“Yashil makon” umumxalq loyihasi** boshlangan bo‘lib, 2023-yil oxirigacha 500 million tup daraxt ekish rejalashtirilgan. Bu tashabbus iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashning amaliy ifodasi bo‘lib, xalqaro hamjamiyat tomonidan yuqori baholanmoqda.[5]

Ushbu maqolada O‘zbekistonning ekologiya sohasidagi xalqaro sheriklik yo‘nalishlari, xalqaro dasturlardagi ishtiroki hamda ekologik xavfsizlikni ta‘minlashdagi ilmiy-amaliy yondashuvlar tahlil qilinadi.

METODOLOGIYA VA ADABIYOTLAR TAHLILI.

Ushbu tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasining ekologik sohadagi xalqaro hamkorlik aloqalari tarixini tahlil qilishda tarixiy-tahliliy, qiyosiy, statistik va huquqiy metodlar uyg‘unlikda qo‘llanildi. Tarixiy yondashuv asosida O‘zbekistonning mustaqillikdan keyingi tashqi siyosatida ekologik diplomatiya shakllanishi jarayonlari ketma-ketlikda o‘rganildi.

Qiyosiy tahlil orqali O‘zbekistonning turli xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik doiralari solishtirilib, ularning o‘ziga xos jihatlari ochib berildi. Statistik yondashuv esa amalga oshirilgan ekologik loyihalarning natijalarini (masalan, “Yashil makon” tashabbusi doirasida ekilgan daraxtlar soni, Orolbo‘yi bo‘yicha e‘lon qilingan loyihalar) tahlil qilishda muhim vosita bo‘ldi.

Huquqiy-metodologik yondashuv orqali esa O‘zbekistonning ishtirokidagi xalqaro ekologik konvensiyalar, rezolyutsiyalar va hujjatlar asosida xalqaro ekologik hamkorlikning huquqiy poydevori tahlil qilindi.

Tadqiqotda ekologik xavfsizlikni ta‘minlash, Orolbo‘yi inqiroziga qarshi kurashish, xalqaro loyihalarning ilmiy asoslari, xalqaro tashkilotlar bilan integratsiya jarayonlari keng yoritildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. O‘zbekiston Respublikasining 1992-yil 2-mart kuni Birlashgan Millatlar Tashkilotiga teng huquqli a‘zo bo‘lishi ekologiya sohasidagi xalqaro hamkorlik uchun keng yo‘l ochib berdi. Eng avvalo, bu holat Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi ikki tomonlama va ko‘p tomonlama ekologik hamkorlikni rivojlantirishga zamin yaratdi.[1] Ayniqsa, Orol va Orolbo‘yi hududidagi ekologik muammolar Markaziy Osiyo davlatlari hamda xalqaro tashkilotlar diqqat markazida bo‘lib, bu yo‘nalishda turli tadbirlar o‘tkazilgan va amaliy loyihalar amalga oshirilmoqda. Orolbo‘yi aholisi uchun sifatli ichimlik suvi bilan ta‘minlash, tibbiy xizmatlarni kengaytirish kabi masalalar hamkorlikdagi asosiy yo‘nalishlardan biridir.

Jahon banki, Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti (YXXT) va boshqa nufuzli xalqaro tuzilmalar O'zbekistonda ekologik muammolarni hal etish jarayonida faol ishtirok etib, katta hissa qo'shib kelmoqda.[5]

Shuningdek, O'zbekistondagi "Ekosan" ekologiya va salomatlik fondi, boshqa nodavlat tashkilotlar ham ekologik muammolarni hal qilish, xalqaro hamkorlikni muvofiqlashtirish yo'nalishida faoliyat yuritmoqda. Ekologik ta'lim va tarbiyani rivojlantirish ham xalqaro hamkorlik doirasida alohida e'tibor qaratilayotgan masalalardandir. O'zbekiston Respublikasi ekologik barqarorlik yo'lida quyidagi asosiy xalqaro konvensiyalarga qo'shilgan:

- 1985-yilgi Ozon qatlamini himoya qilish bo'yicha Vena konvensiyasi;
- 1987-yilgi Monreal bayonnomasi (ozon qatlamini yemiruvchi moddalar bo'yicha);
- 1989-yilgi Bazel konvensiyasi (xavfli chiqindilarni transchegaraviy tashishni nazorat qilish);
- 1992-yilgi Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi konvensiya;
- 1998-yilgi Kioto bayonnomasi;
- 1992-yilgi Cho'llanishga qarshi kurash konvensiyasi;
- 1993-yilgi Biologik xilma-xillikni saqlash konvensiyasi.[4][6]

O'zbekiston Respublikasi ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida xalqaro miqyosda olib borayotgan har qanday hamkorlik harakati ekologik vaziyatni mahalliy, milliy, mintaqaviy va global darajada yaxshilashga xizmat qiladi. Tabiatni muhofaza qilishdagi xalqaro hamkorlik O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosat strategiyasiga muvofiq shakllanadi. U quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;
- hamkorlik uchun ochiqlik, umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash;
- tashqi aloqalarni ikki tomonlama va ko'p tomonlama asosda rivojlantirish.

Milliy siyosat va xalqaro hamkorlikning asosiy yo'nalishlari O'zbekistonning ekologik salohiyatini saqlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlashga qaratilgan. Ekologik muammolarning miqyosi va murakkabligi, resurslardan foydalanishning yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganligi – bozor iqtisodiyoti sharoitida hal qilinishi zarur bo'lgan ustuvor masalalardan biri hisoblanadi. Shu sababli bu yo'nalishdagi moliyalashtirish, resurslardan birgalikda foydalanish, mavjud ekologik muammolarni hal etish xalqaro hamkorlikni taqozo etadi. Shu asosda O'zbekiston ekologik sohada xalqaro hamjamiyat bilan yaqin integratsiyaga kirishni o'zining ustuvor maqsadlaridan biri deb biladi. 1992-yilda BMTga a'zo bo'lganidan so'ng, 1993–2004-yillar davomida O'zbekiston quyidagi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'ydi: **BMT, TESIS, BMTning Iqtisodiy va Ijtimoiy Masalalar Departamenti, KUROON, YUNIDO, YUNESKO, VOZ, VMO, Yer Kengashi, Konventsia Kotibiyati, Jahon Banki, GEF.** 2001-yilda O'zbekiston KUROONGa a'zo etib saylandi.

Bundan tashqari, Yevropa Ittifoqi doirasida **YXXT, Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (OECD), NATO** kabi tuzilmalar bilan faol hamkorlik o'rnatilgan. O'zbekiston Yevropa uchun Iqtisodiy Komissiya bilan ishlaydi hamda "Yevropa uchun atrof-muhit" jarayonida qatnashmoqda.

Osiyo mintaqasida esa O'zbekiston **BMTning Osiyo va Tinch okeani uchun Iqtisodiy va Ijtimoiy Komissiyasi, EKO, AQSH** hamda Hamdo'stlik mamlakatlari bilan ham ekologik aloqalarni yo'lga qo'ygan. UNEP tashabbusi bilan esa Markaziy Osiyoda Hududiy Ekologik Markaz tashkil etilib, har bir davlatda uning milliy ofislari faoliyat yuritmoqda. 1993-yil 26-mart kuni Qozog'istonning Qizilorda shahrida Rossiya va Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari Orol va Orolbo'yi ekologik muammolariga bag'ishlangan konferensiyada ishtirok etib, "Orolni saqlab qolish xalqaro jamg'armasi" tashkil etildi. 1994-yil 11-yanvarda Nukus shahrida o'tkazilgan navbatdagi kengashda Orolbo'yi muammolari bo'yicha tadbirlar ishlab chiqildi. 1995-yil 20-sentyabrda Jahon Banki Nukusdagi Markaziy Osiyo davlat rahbarlari uchrashuvida Orol muammosiga moliyaviy yordam ajratilishini ma'lum qildi. 1997-yil 28-fevralda Olmaotada "Almati bayonoti" qabul qilindi. 1999-yil 8-9-aprel kunlari "Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasini" tashkil etish masalasida O'zbekiston Prezidenti I.A. Karimov nutq so'zladi.

2021-yilda O'zbekiston tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasi Orolbo'yi mintaqasini **"Ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi"** deb e'lon qilish to'g'risidagi rezolyutsiyani qabul qildi. Bu global e'tirof Orol fojiasi oqibatlariga qarshi kurashda O'zbekistonning yetakchi rolini tasdiqlaydi. Bugungi kunda atrof-muhitga oid eng dolzarb masalalarni hal etish borasida faoliyat yuritayotgan bir qator nufuzli xalqaro ekologik tashkilotlar mavjud. 1972-yilda BMT Bosh Assambleyasining tashabbusi bilan atrof-muhit sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish uchun **UNEP (BMTning Atrof-muhit dasturi)** tashkil etildi. Bu tashkilot 58 davlat vakillaridan iborat Kengash tomonidan boshqariladi. Bundan tashqari, 200 dan ortiq nodavlat xalqaro ekologik tashkilotlar (INGO) mavjud bo'lib, ular ichida eng mashhuri **IUCN – Tabiiy Resurslarni Muhofaza qilish Xalqaro Ittifoqi** hisoblanadi (1948-yilda tashkil etilgan). IUCN noyob hayvonlar, o'simliklar va tabiiy resurslarni saqlash, Qizil kitoblarni yuritish, ekologik huquqiy asoslar ishlab chiqish bo'yicha yetakchi tashkilotdir.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng ekologiya sohasida xalqaro miqyosdagi hamkorlikni tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgiladi. 1992-yilda BMTga a'zo bo'lish orqali ekologik xavfsizlikni ta'minlash va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha ko'plab xalqaro konvensiyalar, protokollar va dasturlarga qo'shildi. Orolbo'yi hududidagi ekologik inqiroz O'zbekiston tashqi siyosatida muhim mavzuga aylandi va 2021-yilda BMT tomonidan ushbu mintaqani "Ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi" deb e'lon qilinishi mamlakatning global ekologik muammolarni hal qilishdagi faol ishtirokini tasdiqladi. Shuningdek, O'zbekiston Jahon banki, BMTning atrof-muhit bo'yicha dasturi (UNEP), Yevropa Ittifoqi, GEF, YXXT, KUROON, IUCN kabi xalqaro tashkilotlar bilan samarali hamkorlikda faoliyat yuritib, ekologik muammolarni hal qilish, ekologik ta'limni rivojlantirish, cho'llanishga qarshi kurash, biologik xilma-xillikni saqlash yo'nalishlarida real natijalarga erishmoqda.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T., «O'qituvchi», 1 992-y.
2. O'zbekiston Respublikasining yangi qonunlari. T., «Adolat», 7-t. 1 992-y.
3. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T., «Vangi asr avlodi», 2001-y.

4. Shodimetov Y. Ijtimoiy ekologiyaga kirish. I, II qism, T., «O'qitiluvchi», 1994-y.
5. Tursunov X.T. Ekologiya asoslari va tabiatni muhofaza qilish. «Saodat RIA», 1997-y.
6. Qodirov E. V va boshqalar. Tabiiy mtlhitni muhofazalashning ekologik asoslari. T., «O'zbekiston», 1999-y.
7. Qudratov O. Sanoat ekologiyasi, T., TIESI, 1999- y.
8. Xolmurodov J. Ekologiya va qonun, T., «Adolat», 2000-y.